

BADIIY TARJIMANING LEKSIK XUSUSIYATLARI

Ismoilova Mashhura Mahsud qizi

SamDChTI talabasi

mashhuraismoilova6@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqola badiiy matnni tarjima qilish jarayonida duch keladigan muammolarga bag'ishlangan. Maqolada har bir tarjimani, shu jumladan, badiiy tarjimani ham muayyan bir tilda yaratilgan asarning boshqa bir til vositasida qayta ishlanganligi sifatida to'g'riligi, to'liqligi va tarjima jarayonidagi ba'zi g'alizliklar, muqobil so'zlarni tanlash, chet til madaniyati bilan bog'liq bo'lgan muammolar haqida mulohazalar bildiriladi va xorijlik olimlarning fikrlari tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** muloqot, tarjima, funksional uslub, adabiy yo'nalish, ekstralingvistik uslublar, chet tili madaniyati.*

Kirish, Til, barchamizga ma'lumki, insoniy muloqotning eng muhim va asosiy vositasi bo'lib, uning yordamida insonlar o'zaro fikr almashadilar.

Tildan foydalangan holda odamlar o'rtasidagi muloqot ikki xil shaklda amalga oshiriladi: og'zaki va yozma [5, 77]. To'g'ridan-to'g'ri muloqot uchun odamlarga bir til kifoya qiladi, ammo turli tilda gaplashganlarida to'g'ridan-to'g'ri muloqot imkonsiz bo'lib qoladi. Bunday holatda, albatta, tarjima yordamga keladi. Ko'plab tadqiqotchilar tarjimani bir tilda ifodalangan nutq yoki fikrlarni boshqa bir tilda o'quvchi yoki tinglovchiga yetkazish vositasi sifatida belgilaydilar. Shunday qilib, tarjima odamlar o'z fikrlarini turli xil tillarda ifodalashda tilning kommunikativ funksiyasini bajarishini ta'minlaydigan muhim yordamchi vosita hisoblanadi va butun jahon madaniyati xazinalarining keng yoyilishiga xizmat qiladi.

Asosiy qism, Soʻz, xuddi boshqa til birliklaridek, alohida bir predmetni yoki voqeani atovchi oddiy bir yorliq boʻlmasdan, balki voqelikni bilish vositasidir. Lisoniy birliklar vositasida axborot yigʻiladi, saqlanadi va avloddan-avlodga oʻtadi [3, 2].

Tarjima nimani anglatadi? Bir qarashda hamma narsa oddiydek tuyiladi. Asliy matnda aytilgan gaplar grammatik jihatdan toʻgʻri tuzilgan va u boshqa til soʻzlari bilan ifodalanishi kerak. Ammo, "*Spiritus quidem promptus est, caro autem infirma*" jumlasini lotin tilidan tarjima qilishi kerak boʻlgan seminarchi haqida eski bir latifa mavjud [1, 47].

Seminarchi bu xabarni shunday tarjima qildi: "*Ruh quvnoq, tana zaif*": "*Spirтли ichimlik yaxshi, ammo goʻsht chirigan*". Har bir soʻzni shunday tarjima qilish (masalan, toʻn, chopon, chakmon; ariq, anhor, jilgʻa...) tarjimada berishning eng maqbul va toʻgʻri usuli va vositasini tanlashni taqozo etadi. Zero, mutanosib, mutlaq muqobil tarjimaning boʻlishi ham qiyin. Yuqorida aytilganidek, tarjima aynanligi nisbiy tushunchadir.

Asliy tildagi matnning mazmunini yaxshi idrok etmaslik, u tarjima qilinayotgan tilning soʻz boyligini, gaplarning grammatik qurilishi va uslubiy imkoniyatlarini chuqur his qilmaslik oʻgirilayotgan tilda sunʼiylikning yuzaga kelishiga, turli gʻalizliklar va nuqsonlarning kelib chiqishiga sabab boʻladi.

Madaniy aloqalar rivojlangan, millatlararo munosabatlar kengaygan va ijod erkinligiga keng yoʻl ochilgan ayni davrda ayrim tezkor tarjimonlar tomonidan tarjima qilingan baʼzi asarlar va ular matnida koʻzga tashlanayotgan gʻalizliklar, nafaqat til mutaxassislarining, balki oddiy kitobxon yoki tomoshabinning ham gʻashiga tegayotganligi va uni badiiy adabiyotdan bezdirayotganligi hech bir kishiga sir emas.

Funksional uslublarning eng keng qamrovli tavsifi bu, ehtimol, badiiy sanʼat uslubidir. Shu bilan birga, bu uslub eng koʻp oʻrganilgan degan xulosaga kelish murakkab. Buning sababi, badiiy uslub qolgan barcha uslublar ichida eng harakatchan, ijodiy rivojlangan. Badiiy uslub yangi va nomaʼlum boʻlgan harakat yoʻlida hech qanday toʻsiqlarni qabul qilmaydi.

Badiiy matnlarda (inson hayoti, uning ichki holati, dunyoqarashi) yoritilgan mavzular doirasi cheklanganligiga qaramay, ularni ochib berishda foydalaniladigan vositalar xilm-xil, cheksizdir. Shu bilan birga, har bir chinakam soʻz san'atkori boshqa ijodkorlardan ajralib turishga, nimanidir yangicha uslubda aytishga va kitobxonlar e'tiborini tortishga intiladi.

Badiiy matn tarjimasining reprezentativligi haqida gap ketganda, bu yerda uning me'zonlari soni sezilarli darajada ortib borayotganligini ta'kidlash joiz [4, 84]. Xorijiy til madaniyatiga xos asl nusxani to'liq ifodalab beruvchi matn yaratish uchun tarjimon ko'plab talablarga javob berishi kerak. Bunday me'zonlar orasiga, albatta, ma'lum bir badiiy asar stilistikasining muhim tarkibiy qismi sifatida imkon qadar ko'proq tropik va nutq figuralarining saqlanishini nomlashni ham kiritish kerak, ya'ni tarjima asl ijod davriga ishora qilishi kerak.

Tarjimonga nafaqat yuqori bilim zarur, balki maxsus mahorat ham talab qilinadigan holatlar ham mavjud. Yozuvchi ko'pincha soʻz o'yinlaridan foydalanadi va tarjimada bu o'yinni qayta tiklash qiyin bo'lishi ham mumkin. Tarjima jarayonida bunday tuzoqlar har qadamda tarjimonni poylab yotibdi. Ayniqsa, asliy matndagi personajlarning nutq qiyofasini yetkazib berish ancha murakkab. Masalan, Irland dehqonining nutqini rus tilida yoki Odessa jargonini ingliz tilida yetkazib berish qiyinchilik tug'diradi. Bu yerda nutq so'zlovchining hissiyotini ifodalashda yuzagag kelgan qiyinchilik ma'noni hamda badiiy bo'yoqdorlik yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, tilning folklor, dialektik va jargon unsurlari ko'pchilik tarjominlar tomonidan tarjima tilida to'laqonli qayta yaratib bo'lmaydigan deb e'tirof etilishi bejiz emas.

Agar asliy til va tarjima tili turli xil madaniyatlarga mansub bo'lsa, tarjima jarayonida alohida qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Masalan, arab xalqlari mualliflarining asarlari Qur'ondan iqtiboslar va unda keltirilgan syujetlarga ishoralar bilan to'la. Arab o'quvchisi ularni o'qimishli yevropalik Bibliya yoki qadimgi kitoblardagi havolalarni tanigandek oson taniydi. Ayni davrdagi zamonaviy tarjima kitobxonga matnning

dolzarb emasligi haqida ogohlantiradi va maxsus texnikalar yordamida asarning qanchalik qadimiy ekanligini ko'rsatishga harakat qiladi.

"Har bir eraning, - deb yozadi Chukovskiy, - o'ziga xos uslubi bor, o'tgan asrning o'ttizinchi yillariga oid hikoyada to'qsoninchi yillarning tuyg'ulari, kechinmalari, kayfiyati, izlanishlari kabi tipik so'zlari bo'lishini mutlaqo qabul qilib bo'lmaydi. Süpermen... psixiyaga, noo'rin so'z opaga qaratilgan kabi misralar... Psixikani opa deb atash, Protomeyni aka, Junoni esa ona deyishga o'xshaydi" [6, 23].

Biz allaqachon nomlagan tarjima dominantlari badiiy matnning qadimiyligidan dalolat beradi. Lekin bu xususiyatlar o'quvchiga vaqtni faqat bilvosita yetkazib beradi, chunki ular, avvalo, o'sha davr adabiy an'alarining adabiy yo'nalishi janri va xususiyatlari bilan bog'liqdir. Matnning lingvistik xususiyatlariga vaqt bevosita: leksik, semantik va morfologik arxaizmlarda o'z aksini topadi. Tarjimonlar ulardan arxaik stilizatsiya yaratish uchun foydalanadi. O'tmish tilini, o'tgan davr tilini to'liq o'zlashtirib olish emas, balki matnni faqat arxaizmlar yordamida belgilash - stilizatsiya deyiladi.

Tarjimonlar xuddi yozuvchilar kabi turli xil boy hayotiy tajribaga, tinimsiz ta'minotga muhtoj bo'ladi. Yozuvchi, ya'ni tarjimon tili ham asl yozuvchining tili kabi ona xalqi tilining kuzatishlari va ona adabiy tilining tarixiy taraqqiyotidagi kuzatishlardan iborat [2, 52]. Tarjima tilida milliylikni ifodalashga, uning turmush tarzini, mehnat muhitini, urf-odatlarini, ichki bezaklarini ma'lum bir mamlakat yoki mintaqaning butun xarakteri bilan qayta tiklash orqali aks ettirilishi bilan erishiladi.

Xulosa, Har bir yozuvchi, agar u chinakam ijodkor bo'lsa, o'z dunyoqarashi, binobarin, o'ziga xos tasvir vositalariga ega bo'ladi. Tarjimonning o'ziga xosligi uning qaysi mualliflar va qaysi asarlarni o'z ona tilida qayta yaratishni tanlashida ham namoyon bo'ladi. Til- tarjimon uchun matnning ideal muallifi bilan birlashishdir. Ammo bu birlashish ixtiro va topqirlikni, empatiyani, ko'rish keskinligini va izlanishni talab etadi. Bular, albatta, asl muallifning o'ziga xosligiga soya solmaydigan tarzda ijodiy individuallikni ochib berishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Apresyan Y. D. Ideas and methods of modern structural linguistics... M. Education. 1966- 300 b
2. Barkhudarov L.S. Language and translation – M.: MO, 1975- y
3. Bahodir Abdimal O'G'Li Abdirasulov KONTSEPTNING LISONIY VOQELANISH JARAYONI // Science and Education. 2020. №9. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kontseptning-lisoniy-voqelanish-jarayoni>
4. Komissarov V. N. Translation theory- M . High school, 1990- y
5. Retsker Ya. I. Translation theory and practice of translation. Essays on the linguistic theory of translation - M., 1974- y
6. Chukovskiy K. High art - M.. 1961-y